


## YALPI HUDUDIY MAHSULOT






Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–iyunida Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 16 316,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 4,8 % ga o'sdi.




YaHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 115,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 5,1% ga yetdi.




### Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	<b>I. YaHM</b>	<b>13 542,1</b>	<b>16 316,5</b>	<b>104,8</b>
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	13 047,9	15 713,5	104,8
	Mahsulotlarga sof soliqlar	494,2	603,0	104,6
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>13 047,9</b>	<b>15 713,5</b>	<b>104,8</b>
	<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>5 137,6</b>	<b>6 353,7</b>	<b>100,5</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>3 760,5</b>	<b>4 234,0</b>	<b>103,0</b>
	sanoat	2 536,3	2 713,5	100,3
	qurilish	1 224,2	1 520,5	108,5

		Mlrd. so‘m		O‘shish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	<b>Xizmatlar</b>	<b>4 149,8</b>	<b>5 125,8</b>	<b>111,6</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	956,7	1 198,7	112,2
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	706,8	961,8	121,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	2 486,3	2 965,3	108,5

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 8355,4 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,5 % ga yuqoridir.











Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 40,4 % ni, sanoat tarmog'i 17,3 % ni, qurilish 9,7 % ni va xizmatlar sohasi 32,6 % ni tashkil qildi.




## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2020- yil	2021- yil
	<b>I. YaHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,4	96,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,6	3,7
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>39,4</b>	<b>40,4</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>28,8</b>	<b>27,0</b>
	sanoat	19,4	17,3
	qurilish	9,4	9,7
	<b>Xizmatlar</b>	<b>31,8</b>	<b>32,6</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,3	7,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,4	6,1
	boshqa xizmat tarmoqlari	19,1	18,9




**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

**2020- yil**





**2021- yil**



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 100,5 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 40,4 %), sanoatda – 100,3 % (17,3 %), qurilishda – 108,5 % (9,7 %), xizmatlar sohasida – 111,6 % ni (32,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,2 % (7,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 121,9 % (6,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 108,5 % dan (18,9 %) iborat bo'ldi.



**Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,2 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 1,2 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,1 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,01 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,6 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 3,6 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,2 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.



### 2021- yilning yanvar-iyun oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)







2021- yilning yanvar-iyunida YaHM deflyatori indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 115,0 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jalida – 123,0 % va qurilishda – 114,5 % qayd etildi.



## Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



## Yanvar-iyun oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 73,7 % ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-iyunida – 72,5 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.